

UMARALI NORMATOV IJODIDA ADABIY SUHBAT JANRINING BADIY-ESTETIK AHAMIYATI.

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti tillarni o'qitish

o'zbek tili 4-bosqich talabasi

Axmadjonova Gulsanam

E-mail: nurmuhammadovagulsanam647@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Umarali Normatovning " Talant tarbiyasi" kitobi asosida adabiy suhbat janrining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijodkorlar bilan olib borilgan suhbatlarning asosiy g'oyalari tahlil qilinadi. Maqolada ijod psixologiyasi, iste'dod va mehnat munosabati, badiiy haqiqat, tanqidning roli kabi masalalar ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: munaqqid, adabiy suhbat, badiiy ijod, tanqid, ijod jarayoni, iste'dod, badiiy tafakkur, ijodkor, adabiy jarayon.

Abstract: This article analyzes the essence of the literary dialogue genre and its specific features based on the work "Talant tarbiyasi" by Umarali Normatov. It examines the main ideas expressed in the author's conversations with writers, including the psychology of creativity, the relationship between talent and labor, artistic truth, and the role of literary criticism. The study highlights the importance of literary dialogue in revealing the inner world of the writer and the creative process.

Keywords: critic, literary dialogue, artistic creativity, criticism, creative process, talent, artistic thinking, creator (writer), literary process

Аннотация : В данной статье на основе произведения «Talant tarbiyasi» Umarali Normatov рассматриваются сущность жанра литературной беседы и его особенности. Анализируются основные идеи, выраженные в беседах с писателями,

такие как психология творчества, соотношение таланта и труда, художественная правда и роль критики. Особое внимание уделяется значению литературного диалога в раскрытии внутреннего мира автора и творческого процесса.

Ключевые слова: критик, литературная беседа, художественное творчество, критика, творческий процесс, талант, художественное мышление, творец (писатель), литературный процесс.

Kirish

Adabiy suhbat muloqotning ixcham shakllaridan biri sifatida adabiyot rivojida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, suhbatda ikki shaxsning- yozuvchi va tanqidchi yoki ijodkor bilan kitobxon yoki ijodkor bilan ijodkorning badiiy ijod sirlari haqidagi mulohazalari, adabiyot muammolar haqidagi erkin muloqot yuzaga keladi. Adabiy suhbat janrining kelib chiqish ildizi Suqrot, Aflotun suhbatlari rivoj topgan qadimgi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Keyinchalik bu janrni rus adabiyotshunosligida V.G. Belinskiy va A.S. Pushkin ijodida uchratishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, A.S. Pushkin adabiy tanqidga yuksak baho bergan va "qayerda san'atga muhabbat bo'lmasa, u yerda tanqid ham bo'lmaydi"-deb hisoblagan va uning "Tanqid haqida suhbat" asar adabiy-tanqidiy suhbat janrining yorqin namunasi hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotida esa bu janr namunasi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Husayn Voiz Koshifiyning "Latoif ut-tavoif", Xondamirning "Makorim ul-axloq" kabi asarlarida uchratish mumkin. Mustaqillikdan keyin o'zbek adabiyotda bir qator janrlar rivoj topa boshladi. Xususan, XX asrning 70- yillarida o'zbek tanqidchiligida yozuvchi, shoir va tanqidchi o'rtasida kechadigan muloqot, ya'ni adabiy-tanqidiy suhbat janri rivojlandi.

Ma'lumki, adabiy suhbatlar o'zbek adabiy tanqidchiligida qator adabiyotshunos va munaqqidlar faoliyatida muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiy tanqididagi suhbatning o'ziga xosligi I. Haqqulovning "G'azal gulshani", "Kim nimaga tayanadi", S. Matjonovning "Tiriklik suvi", U. Normatov "Talent tarbiyasi", "Nafosat gurunglari", "Ijod sehri" kabi kitoblarida yoritilgan.

Asosiy qism

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti tanqidchiligi qator muvaffaqiyatlarga erishdi, tanqidchilar faoliyati yanada kengaydi. Shu bois bugungi adabiy jarayonda adabiyotshunoslik bilan adabiy tanqidchilik baravar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, joriy adabiy jarayonni baholashda munaqqidlarning roli katta bo'lmoqda. Shunday munaqqidlardan biri Umarali Normatov, ayniqsa, hozirjavob munaqqid sifatida adabiy-tanqidiy suhbat janri rivoji yo'lida samarali mehnat qildi va mazkur janrning o'zbek adabiy tanqidchiligida o'ziga xos o'rin topishiga katta hissa qo'shdi.

Uning suhbatlar asosida yuzaga kelgan "Talant tarbiyasi" asari o'zbek tanqidchiligida adabiy suhbat janrini yaqqol ochib beruvchi asardir. Unda tanqidchi ijod, mahorat sirlari haqida bevosita ijodkorlarning o'zlari, turli avlodga mansub yozuvchilar bilan suhbat olib boradi. Ayni paytda, kitobda yosh iste'dodlar tarbiyasi, ijodi, umuman, hozirgi adabiy jarayon bilan bog'liq muhim masalalar tahlil etiladi. Bundan tashqari, ushbu kitobda tanqidchi bir qator ijodkorlar xususan, Erkin Vohidov, Asqad Muxtor, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyev kabilar bilan olib borilgan suhbatlari keltirilgan. Shu bilan birgalikda, olim ijodkorlar bilan olib borgan suhbatlari orqali ularning badiiy tafakkurini ochishga intiladi. Shuningdek, uning asarlarida suhbatlar samimiy ruhda olib borilishi, har bir fikrda insoniylik va estetik yondashuv ustuvorligi kuzatiladi. Buning namunasini suhbatlarni tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov bilan olib borilgan suhbatning asosiy mavzusi "talant tarbiyasi" haqida bo'lib, kitob sarlavhasida o'z aksini topgan. Shuning uchun ham tanqidchi suhbatni "Talant tarbiyasi" deb atadi. Tanqidchini bu suhbatda talant, iste'dod, ularni tarbiyalash, bugungi kunda talantli ijodkorlarga munosabat kabi masalalar qiziqtiradi. Shuning uchun ham u "badiiy talant tug'ma bo'ladi, agar insonda badiiy ijodkorlik hislatlari bo'lmasa, uni tarbiyalash, o'qitish yo'li bilan hosil etish aslo mumkin emas. Biroq, bu tug'ma talantning kishida kamol topishida tevarak-atrof, muhit, shart-

sharoitning o‘rni g‘oyat muhim”¹ deb ta’kidlaydi. Bu yerda tanqidchi adabiy tanqidning bir kamchiligini ochib beradi: Adabiyotshunos- tanqidchilar iste’dodsiz kishi so‘z san’ati qonuniyatlarini qanchalik chuqur bilgan bilan hech narsaga erisha olmasligini e’tirof etadilar, lekin "professional bilimdonlik tufayli talantli yozuvchi nimalarga erishganligini yetarli ravishda" ko‘rsata olmasligini ochib beradi. Bu suhbatdan xulosa shuki, kitobxon har bir yozuvchi-ijodkorda har qanday asarni yaratish va voqealarni ochib berishda, o‘quvchiga estetik zavq hamda unda tasavvur uyg‘otish qobiliyati yuqori bo‘lishi kerakligini tushunib yetadi.

Munaqqid ijodida shunday suhbatlar borkii, ularda munaqqid bilan suhbatdosh ko‘proq adabiyotdagi nazariy muammolar haqidafikr almashadilar. U. Normatovning “Hayotiy tajribadan badiiy haqiqatga ” nomli suhbatini yozuvchi Mirmuhsin bilan olib borilgan. Bu suhbatning o‘ziga xos jihati shundaki, unda tanqidiy ruh yanada kuchliroq, ya’ni tanqidchi yozuvchi yaratgan ba’zi obrazlardagi kamchiliklarni tanqid qilib, “so‘z kelganda otangni ayama” degan naqlni qo‘llaydi. Jumladan, u “Degr ez o‘g‘li”dagi Arslonning “qalbidagi nurni” yo‘qotganini asoslab beradi. Suhbatda tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin etishdagi o‘rni va o‘rni, qahramonning shaxslar hayotning badiiy talqinida " to'qima " ning roli , o‘rni masalasi, qahramonning tug‘ilishi va shakllanishida boshqalarning ta’siri, birinchi galda ustozlar tomonidan yaratilgan qahramonlarning ta’siri, turli ijodkorlar asarlaridagi mushtarak tomonlar va har bir yozuvchining ijodiy individualligi haqida so‘z yuritildi. Xususan, bu adabiy suhbat, avvalo, yozuvchining individual qiyofasi, ijod psixologiyasini ochib beradi. Yozuvchi ijodining noma’lum qirralarini yoritish bilan birga, uni shakllantiruvchi suhbatdosh-tanqidchi qiyofasini ham ko‘rsatadi.

“Xarakterdagi estetika” deb nomlangan suhbat asosan adabiy tanqidga bag‘ishlangan bo‘lib, munaqqid bu suhbatni yozuvchi P. Qodirov bilan olib boradi. Suhbatdoshlar o‘sha davrda “Adabiy-badiiy tanqidchilik to‘g‘risida”gi qarorning besh yilligi munosabati bilan

¹ Normatov U. Talant tarbiyasi, Toshkent –1980

adabiyotshunoslikdagi o'zgarishlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Shundan kelib chiqib, tanqidchilik predmeti, nazariyasi va metodologiyasi, tamoyil va vazifalari, tanqidchining iste'dodi, uning adabiyot va kitobxon oldidagi burchi haqida keng fikr almashadilar, bahs-munozaralarga munosabat bildiradilar. Ulardan bir bo'lagi – tanqidchi iste'dod masalasiga qiziqadi. Yozuvchining tasavvuricha, adabiy tanqid ham fan va badiiy ijod chegarasida yuzaga keladi, ular bir-biriga bog'lanib, ikki sohaning fazilatlarini qo'shib, sintezga aylanadi. Suhbatda: “Agar adabiyotimizni tirik organizm sifatida tasavvur qilsak, tanqidchilik organizmning qonini tozalaydigan jigar vazifasini o'taydi”², degan mulohazalar adabiy tanqidning o'ziga xos xususiyatini ko'rsata oladigan ko'rinishdir. Bu suhbat o'quvchining tanqidning mazmun-mohiyati haqidagi qarashlarini kengaytirishga yordam beradi.

Tanqidchi atoqli bolalar yozuvchisi X.To'xtaboyev bilan “Sarguzasht tashvishlari” mavzusida suhbatlashadi. Bu suhbatda, asosan, sarguzasht, detektiv asarlarga munosabat, yozuvchining ijod laboratoriyasiga kirishi, asarlarining ichki mohiyati, yozilish jarayoni, bugungi bolalar adabiyotidagi illatlar haqida so'z boradi.

Xulosa

Umarali Normatov ijodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, adabiy suhbat janri uning ilmiy-tanqidiy faoliyatida alohida o'rin egallaydi. Ushbu janr orqali olim badiiy asarni an'anaviy tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, balki ijodkor shaxsini, uning ruhiyati va ijod jarayonini chuqur ochib berishga erishadi. Ular orqali ijodkorning ichki kechinmalari, estetik qarashlari hamda badiiy tafakkur evolyutsiyasi yoritiladi. Manbada qayd etilganidek, olimning barcha yozganlarida samimiyat ustuvor bo'lib, bu xususiyat ayniqsa adabiy suhbatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, adabiy suhbat janri ijod jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Normatovning ayrim ijodkorlar bilan olib borgan muloqotlari ularning yangi asarlar yaratishiga turtki bo'lgani ushbu

² Normatov U. Talant tarbiyasi, Toshkent –1980

janrning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, Umarali Normatov ijodida adabiy suhbat janri:

ijodkor shaxsini anglashning muhim vositasi;

ijod jarayonini ochib beruvchi ilmiy metod;

adabiy tanqidni jonlantiruvchi samarali shakl;

o‘quvchining estetik tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, adabiy suhbat janri Normatov ijodida nafaqat yordamchi usul, balki mustaqil ilmiy-estetik hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Talant tarbiyasi, Toshkent – 1980.
2. Normatov U. Ijod sehri, Toshkent – 2007.
3. Normatov U. Qalb inqilobi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi o'zbek adabiyoti va san'ati nashriyoti – 1985
4. Adabiy tanqid va zamonaviy o'zbek adabiyoti masalalari. Toshkent. 2021.